

PAPER

O'ZBEK TILI LEKSIKASINING EMOTSIONAL-EKSPRESSIV JIHATDAN QATLAMLANISHI

Musallamova Shaxribonu Abduaxat qizi^{1,*}

¹ Qo'qon davlat universiteti O'zbek tili va adabiyoti 3-bosqich talabasi

* musallamova671@gmail.com

Abstract

Ushbu maqolada o'zbek tili leksikasining emotsional-ekspressiv jihatdan qatlamlanishi haqida ma'lumotlar keltirib o'tilgan. Tildagi uslubiy bo'yoq, nutqning ifodaviyligi, leksik birliklarning uslubiy xoslanishi haqida turli xil qarashlar aks ettirilgan.

Key words: emotsional-ekspressivlik, emotsionallik, ekspressivlik, stilistika, pragmatika, nutq ta'sirchanligi, baholovchi birliklar.

Til inson tafakkurini ifodalash bilan birga, uning ichki hissiy holati, munosabati hamda subyektiv bahosini aks ettiruvchi murakkab ijtimoiy hodisa sifatida namoyon bo'ladi. Nutq jarayonida shaxs nafaqat axborot uzatadi, balki o'z hissiyotlari, ruhiy holati, shuningdek, voqelikka nisbatan ijobiy yoki salbiy munosabatini ham ifodalaydi. Mazkur holat til birliklarining emotsional-ekspressiv xususiyatlari orqali yuzaga chiqadi.

Zamonaviy tilshunoslikda emotsional-ekspressivlik muammosi alohida ahamiyat kasb etmoqda. Bu holat tilni faqat struktur birliklar tizimi sifatida emas, balki kommunikativ va pragmatik jihatdan faol tizim sifatida talqin etish

zarurati bilan izohlanadi. Nutqning ta'sirchanligi hamda uning tinglovchi yoki o'quvchiga psixologik ta'sir ko'rsatish xususiyati aynan emotsional-ekspressiv vositalar orqali ta'minlanadi.

O'zbekiston milliy ensiklopediyasida ekspressivlik termini quyidagicha izohlangan: ekspressivlik tilshunoslikda - til birligining semantik stilistik belgilari majmui; til birligining aloqaso'zlashuv jarayonida so'zlovchining nutq mazmuniga yoki nutq qaratilgan shaxsga nisbatan subyektiv (ijobiy yoki salbiy) munosabatining ifoda vositasi bo'la olishini ta'minlaydi. Ekspressivlik tilning barcha sathlari birliklari uchun xosdir.

O'zbek tilshunosi A.Abdullayev "O'zbek tilida

Compiled on: February 17, 2026.

Copyright: ©2026 by the authors. Submitted to Advances in Science and Humanities for possible open access publication under the terms and conditions of the [Creative Commons Attribution \(CC BY\) 4.0 license](https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/).

ekspressivlik ifodolani-shining sintaktik usuli” nomli asarida “ekspressivlik bildirilayotgan fikr ifodasining ta’sir kuchini orttirish demakdir” deb tarif beradi. Lisoniy birlikda ekspressivlikning hosil bo’lishi uning mazmun doirasi kengayishiga, qo’shimcha ma’no bo’laklarining paydo bo’lishiga olib keladi.

Jahon tilshunosligida ko’p tilshunoslar, jumladan, F.Sossyur, V.Vundt, K.S.Lyuis, E.Bergen, V.F.Gegel, D.Bolingerlar o’z ilmiy ishlarida emotsionalekspressiv so’zlar va ularning ma’no taraqqiyotini o’rganishganlar. V.I.Shaxovskiy, E.M.Galkina, Fedoruk, E.F.Patrishcheva, S.S.Plyamovataya, S.G.Lyubova, S.K.Abakumov, V.V.Vinogradov, Y.Y.Myagkova kabi rus tilshunoslari esa o’z tadqiqotlarida emotsional so’zlarni ko’proq psixologiya faniga bog’lab o’rganishga erishishgan.

O’zbek tilshunosligida ham bu borada samarali tadqiqotlar olib borilganini kuzatishimiz mumkin. Dastlab Y.Pinxasov “Hozirgi o’zbek adabiy tili” ilmiy qo’llanmasida emotsional so’zlarni his-hayajonni bildiruvchi maxsus so’zlar va so’zlovchining predmet, voqea-hodisalarga ijobiy yoki salbiy munosabatini ifodalovchi so’zlar ga bo’lganini e’tirof etgan bo’lsa, I.Qo’chqortoyev so’zlarning bog’lanishi asosida emotsional-ekspressivlik hosil bo’lishini aytib o’tgan. S.Usmonov, Sh.Rahmatullayev, F.Kamolov, H.Jamolxonov, G.Kabuljanova, G.Qambarov, X.Doniyorov, M.Mirtojiyev, S.G’oyibov, R.Qong’urov, A.Abdullayevlarning ilmiy tadqiqotlarida ham emotsional-ekspressivlikni ifodalovchi leksikalar tahlilini kuzatamiz.

So’nggi yillarda amalga oshirilgan lingvistik tadqiqotlar emotsional-ekspressivlik til tizimining ikkilamchi yoki periferik hodisasi emas, balki uning funksional jihatdan muhim markaziy komponentlaridan biri ekanini ko’rsatmoqda. Nutqning ekspressivligi nafaqat estetik ehtiyojlarni qondiradi, balki kommunikativ jarayonning samaradorligini oshirishga ham xizmat qiladi. Shu bois emotsional-ekspressiv birliklar ijtimoiy muloqotda muhim pragmatik vazifani bajaradi.

Emotsional-ekspressivlik masalasining ilmiy jihatdan tadqiq etilishi til birliklarining semantik tuzilishini yanada chuqurroq anglash imkonini beradi. Bir xil leksik birlik turli kontekstlarda turlicha emotsional rang kasb etishi mumkin. Bu

holat tilning kontekstual va diskursiv xususiyatlari bilan izohlanib, emotsional-ekspressivlikning dinamik tabiatga ega ekanini ko’rsatadi.

Ekspressivlik va emotsionalistik tushunchalari o’rtasida ma’lum darajada umumiylik bo’lib, har ikkisi ham nutqning ta’sirchanligi uchun xizmat qiladi. Shuning uchun bo’lsa kerak, tilshunoslar ko’pincha ularni birlashtirib, “Emotsionalekspressiv” (yoki aksincha) tarzda qo’llaydilar. Har qanday so’z va boshqa til birliklari o’z qurshovidan chiqsa, boshqa maqsadda maxsus qo’llansa, ekspressivlik yuzaga keladi. Lekin undan tashqari ham o’zbek tili lug’ati sostavida lavang, galvars, jajji, tirmizak, tabassum, lapashang kabi bir qator so’zlar borki, ular ekspressivlik ifodalovchi so’zlardir. Bunday so’zlar ekspressiv leksikani tashkil qiladi. O’zbek tili bo’yicha chiqqan darslik va qo’llanmalarda ekspressiv leksikaga alohida o’rin ajratilgan. Masalan, M. Mirzaev, S. Usmonov va

I. Rasulovlarning kitobida “Tushuncha ifodalashdan tashqari ko’pincha ta’sirchanlikka erishishi va nutqning ma’lum stilini yaratish maqsadida qo’llanilgan so’zlar ekspressiv-stilistik leksika deyiladi”, -degan ta’rif berilgan. Ekspressivlik va emotsionalistik bir-biridan ajratiladigan hodisalar emas. Bu hodisalarning birida ekspressivlik ustun, boshqasida emotsionalistik ustun, yana birida har ikkisi teng bo’lishi mumkin. Shunga ko’ra, birinichisini ekspressivlik, ikkinchisini emotsional, uchunchi xilini emotsional-ekspressiv deb atash maqsadga muvofiq.

Emotsional-ekspressivlik his-tuyg’u, munosabat ifodalash demakdir. O’zbek tilidagi ba’zi so’zlar so’zlovchining munosabatini ham ifodalaydi, ba’zilarida munosabat sezilmaydi. Shu jihatdan so’zlar ikki xil bo’ladi:

- 1) emotsional-ekspressiv bo’yoqsiz so’zlar;
- 2) emotsionalekspressiv bo’yoqdor so’zlar

Bo’yoqsiz so’zlarda faqat tushuncha, ma’no ifodalanadi. So’zlovchining munosabati sezilmaydi. Bunday so’zlar bo’yoqsiz yoki neytral so’zlar deb yuritiladi.

O’zbek tili leksikasida so’zlar emotsional-ekspressiv jihatdan ikki qatlamga ajratiladi:

1. Emotsional-ekspressiv jihatdan betaraf so’zlar. Bunday so’zlarning semantik tarkibida

faqat denotativ ma'no (atash, nomlash semalari) mavjud bo'ladi: yuz, oriq, ozg'in, jilmaymoq kabi.

2. Emotsional-ekspressiv jihatdan bo'yoqdor so'zlar. Bunday so'zlarning semantik tarkibida denotativ ma'no (atash, nomlash semalari) bilan birga uslubiy bo'yoqlar (ifoda semalari, konnotativ semalar) ham mavjud bo'ladi: turq (denotativ ma'no + uslubiy bo'yoq), dirdov (denotativ ma'no+uslubiy bo'yoq), qiltiriq, ipiltiriq (denotativ ma'no + uslubiy bo'yoq), irshaymoq (denotativ ma'no + uslubiy bo'yoq) kabi. Izoh: yaxshi va yomon, g'azab va nafrat kabi so'zlarda uslubiy bo'yoq bordek tuyuladi, aslida esa ularda uslubiy bo'yoq yo'q, bu so'zlar belgi yoki voqelikni atash (nomlash) bilan cheklanadi, shunga ko'ra emotsionalekspressiv jihatdan bo'yoqdor so'zlar sanalmaydi.

Emotsional-ekspressiv bo'yoqdor so'zlarning nutqda qo'llanishi Uslubiy bo'yog'i bor bo'lgan so'zlardan nutqda his-tuyg'ulami, so'zlovchining voqelikka nisbatan salbiy yoki ijobiy munosabatini ifodalash maqsadida foydalaniladi.

Masalan: Mamlakat bizlarga ishonsin! Biz shalvirab ishnixurjun qilaylik!... (Uyg').

Tursang-chi, muncha shalpayasan! (H.Sh.).

Bu misollarda bo'shashmoq leksemasi o'rnida shalviramoq va shalpaymoq so'zlari qo'llangan va shu so'zlarning mazmun planidagi uslubiy bo'yoqlar («kinoya», «mazax», «kesatiq» semalari) hisobiga nutqda ekspressivlik ta'minlangan. Nutqda ekspressivlikning ifodalanishi quyidagi usullarga tayanadi:

1. Leksik usul. Bunda uslubiy bo'yog'i bor bo'lgan so'z nutqqa kiritiladi (yuqoridagi misollar).

2. Kontekstual usul. Bunda uslubiy bo'yog'i yo'q bo'lgan so'z ma'lum kontekst yoki nutqiy muhit ta'sirida uslubiy buyoqdor so'zga aylantiriladi. (bu haqda «Ifoda semalari» bahsiga qarang).

3. Affiksatsiya usuli. Bunda betaraf ma'noli so'zlarga subyektiv baho ifodalovchi affiksalar morfemalar qo'shiladi.

4. Fonetik usul. Bunda so'z tarkibidagi undoshlardan biri qavatlantiriladi (geminatsiya), unlilar cho'ziladi, uig'uning o'rni o'zgartiriladi, shular hisobiga ekspressivlik ta'minlanadi.

Misollar: Ishqilib, Zamira bechora uyatga chidayolmay ketib qolgan. Yashshamagurlar... (P.Q.).

Akam bechora go'shangada ko'rib, xayro-o-o-on bo'lib qolganlar. (Mirm.).

Emotsional-ekspressivlik tushunchasi til birliklarining subyektiv-baholovchi xususiyatlarini ifodalashga xizmat qiladi. Ushbu baho nutqda so'zlovchining voqelikka bo'lgan munosabati, hissiy holati hamda kommunikativ niyati bilan uzviy bog'liq holda namoyon bo'ladi. Xususan, badiiy adabiyot, publitsistik matnlar va og'zaki nutqda emotsional-ekspressiv vositalar nutqning obrazlilikini kuchaytirish va uning ta'sirchanligini oshirishda muhim omil hisoblanadi.

Ekspressivlik ifodalovchi leksik vositalar sifatida polisemantizm, stilistik chegaralangan leksika, sinonimiya va frazeologiya kabi hodisalarni belgilash mumkin. Sanab o'tilgan til hodisalari ekspressivlik hosil qilishda aktiv va sermahsul vositalardir. Sinonimiya stilistikaning asosi bo'lib, sinonimik birliklar ekspressivliklar yaratishda muhim o'rin egallaydi. Ayniqsa, gradatsiya imkoniyatiga ega bo'lgan til hodisasi hamma vaqt ekspressivlik ifodalash imkoniyatiga ham ega bo'ladi. Chunki gradatsiyaning o'zi ma'noning kuchi jihatidan darajalanishi demakdir:

Ey mungli xotun, sen kimsan?

Ey g'amli ona, nechuk mundan ayrilmaysan?

(Fitrat, "Yurt qay'g'usi".)

Bu yerda "mungli xotun, g'amli ona" birliklari yordamida sinonimlar orasidagi gradatsiyaga guvoh bo'lamiz. Bu esa ushbu misralarda ekspressivlik mavjudligini anglatadi. Fitrat ushbu she'rida gradatsiyadan foydalanib o'zi yashagan davr ayollari orqali yurt qadri qanchalik balandligi haqida e'tirof etadi.

Bag'rim yoniq, yuzim qora, ko'nglim siniq, bo'ynim bukuk.

Sening ziyoratingga keldim, sultonim!

Ezilgan boshim, qisilgan vijdonim, kuygan qonim, o'rtangan jonim uchun bu sag'anangdan davo izlab keldim, xoqonim!

Turk uchun qo'ydig'ing davlat bitdi, turk ostig'a qurdig'ing hoqonlik yog'iygami ketdi.

Turkning nomusi, e'tibori, iymoni, vijdoni zolimlarning ayog'larin ostinda qoldi.

Turkning yurti, ulog'i, o'chog'i, Turoni yot qo'llarg'a tushdi.

Turkning bilgisi, ongi, o'ylovi, ziyrakligi jaholat

o'ljasi'ga ketdi.

Sening omonating'ga xiyonat qil'ganlarni ez, ur, o'ldur!

Sultonim!

(Fitrat, "Yurt qayg'usi")

Ushbu misralarda ham sinonimiyaga xos gradatsiyani kuzatamiz, bu orqali shoir o'z davrida bo'layotgan o'zgarishlardan bezovta ekanligini bildirib, Turonni yot qo'llarga berib qo'yilganidan azoblanayotganini aytib Temurdan uzr so'raydi.

Umuman olganda, emotsional-ekspressivlik til tizimining ikkilamchi hodisasi emas, balki nutqning semantik, pragmatik va kommunikativ samaradorligini ta'minlovchi muhim tarkibiy qismidir. Til birliklari orqali faqat axborot uzatilmay, balki so'zlovchining hissiy holati, subyektiv bahosi va voqelikka munosabati ham ifodalanadi. Bu holat emotsional-ekspressiv vositalarning nutq ta'sirchanligini oshirishdagi o'rnini belgilaydi. Ekspressivlik va emotsionallik tushunchalari o'zaro chambarchas bog'liq bo'lib, ko'pincha bir butun hodisa sifatida namoyon bo'ladi. Emotsional-ekspressivlik tilning barcha sathlarida — leksik, morfologik, sintaktik va fonetik darajalarda yuzaga chiqadi hamda kontekst ta'sirida dinamik xususiyat kasb etadi. Ayniqsa, sinonimiya, gradatsiya, affiksatsiya va kontekstual vositalar ekspressivlik hosil qilishda sarmahsul ekanligi kuzatildi. Badiiy va publitsistik matnlarda emotsional-ekspressiv birliklar nutqning obrazlilikini kuchaytirib, muallifning g'oyaviy-estetik niyatini aniqroq ochib berishga xizmat qiladi. Demak, emotsional-ekspressivlikni ilmiy jihatdan o'rganish til birliklarining semantik tuzilishini chuqurroq anglash, shuningdek, nutqning ta'sir mexanizmlarini izohlash uchun muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Abdullayev A. O'zbek tilida ekspressivlikning ifodalanishi. — Toshkent: Fan, 1983.
2. Abdullayev A. O'zbek tilida ekspressivlikni ifodalashning sintaktik usuli. — Toshkent: Fan, 1987.
3. Hakimova M. Semasiologiya. — Toshkent, 2008.
4. Madjidova R.U., Muhiddinova X.S., Sultonova Sh.M. Tilshunoslikka kirish. — Toshkent, 2015.
5. Pinxasov. Hozirgi o'zbek adabiy tili. — Toshkent: O'qituvchi, 1969.
6. Qilichev E. O'zbek tilining amaliy stilistikasi (grammatika). — Toshkent: O'qituvchi, 1992.
7. Qo'chqortoyev I. So'z ma'nosi va uning valentligi. — Toshkent: Fan, 1977.
8. <https://universalpublishings.com/index.php/gumanitar/art>
9. <https://jainkwellpublishing.com/index.php/conferences/ar>